

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION JIHOZLAR TAYYORLASH METODIKASI

Qahhorjonova Qurbonoy

Chirchiq davlat pedagogikasi universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

qahhorjonovaqurbonoy@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Boshlang'ich sinflarda ta'lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion jihozlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar uchun innovatsion jihozlar tayyorlash metodikasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, renessans, an'anaviy, STEAM, virtual, jihoz, sinov, texnologiya, baholash, metod.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida 7-11 yoshli shaxslarni barkamol voyaga yetkazish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida quyidagi vazifalar alohida qo'yilgani bejiz emas albatta "Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida avvalo, o'quv dasturlari, o'qtuvchi va murabbiylar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim"[1] mana shu murojatlari asosida boshlang'ich sinflarga ta'lim berishda innovatsion jihozlar va metodikalar yaratildi.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovatsion) "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya- muayyan tizimning ichki tuzilishi. Ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.[2]

1. Innovatsion jihozlarning ta'limdagi roli Innovatsion jihozlar o'quv jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qilish uchun xizmat qiladi. Ular quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- Mustaqil o'rganish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi;
- An'anaviy dars jarayoniga yangicha yondashuv olib kiradi.

2. Innovatsion jihozlar turlari Boshlang'ich sinflar uchun quyidagi innovatsion jihozlar samarali hisoblanadi:

- Interaktiv doskalar – ta'lim jarayonini jonlantirish uchun qo'llaniladi;
- STEM laboratoriya jihozlari – tabiatshunoslik va texnologiya fanlarini o'rgatish uchun muhim vosita;

O'yin shaklidagi ta'lim jihozlari – kartochkalar, kodlash o'yinlari va konstruktorlar orqali ta'lim berish;

Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR) vositalari – mavzularni vizuallashtirish orqali tushunarli qilish.

Innovatsion jihozlarni tayyorlash bosqichlari Innovatsion jihozlarni tayyorlash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Talablarni aniqlash – o‘quv dasturiga mos ravishda jihozlarni loyihalash.
2. Materiallar va texnologiyalarni tanlash – sifatli va chidamli materiallardan foydalanish.
3. Jihozlarni ishlab chiqish – interfaol va moslashuvchan texnologiyalarni joriy etish.
4. Sinov va baholash – jihozlarni real ta’lim jarayonida sinab ko‘rish.
5. Taqdim etish va joriy qilish – o‘qituvchilarni o‘qitish va jihozlarni ta’lim muassasalariga integratsiya qilish. [3]

Innovatsion jihozlardan samarali foydalanish usullari Innovatsion jihozlardan foydalanishda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

- O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan jihozlarni tanlash;
- Texnologiyalardan me’yorida va maqsadli foydalanish;
- O‘qituvchilarni yangi texnologiyalar bo’yicha doimiy ravishda o‘qitish;
- O‘quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga rag‘batlantirish. [4]

Innovatsion jihozlar yordamida boshlang‘ich sinflarda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil qilish mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi. Kelajakda ta’limda innovatsion yondashuvlarni kengaytirish uchun ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarni rivojlantirish zarur. Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta’lim berish mamlakatimizning ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir. Shuningdek, komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim, shubhasiz, poydevor vazifasini o‘taydi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob-axloq qoidalariga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o‘qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitish zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarni munosib tarbiyalagan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHAVKAT Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020-yil 30-dekabr soni.
2. O.M.Jabborova, Z.A.Umarova, L.M.Babaxodjayeva “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya”. Toshkent: “Malik print co”. 2021
3. Azizxo‘jayev, R. (2020). Pedagogik innovatsiyalar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.
4. Rahimov, I. (2021). Ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.